
11-Mavzu. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning shaxs va shaxslararo munosabati xususiyatlari

Reja:

1. Shaxs haqida olimlar fikri.
2. Nutq nuqsoniga ega bolalar shaxs va shaxslararo munosabatlar xususiyatlari.

3.Nutq nuqsonlariga ega bolalar shaxslararo munosabati xususiyatlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish usullari.



Tayanch iboralar: Shaxslararo munosabat, ong, individ, subyekt, faol faoliyat, ijtimoiy moslashish, o‘zini anglash, harakat faolligi.

Shaxs – ijtimoiy mavjudot sifatida qaraluvchi insondir. Shaxs jamiyatda ma`lum holatni egallovchi, muayyan ijtimoiy rolni bajaruvchi ongli individ. Shaxs o‘zining kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy bo‘lgan, o‘z e`tiqodi, qarashlari, munosabatlari va baholariga ega bo‘lgan subyekt. "Subyekt — faol faoliyat ko‘rsatuvchi, biluvchi, ong va irodaga ega bo‘lgan individ".

Shaxs muammosi psixologiyaning murakkab va muhim muammolaridan biri bo‘lib, unga turli ta’riflar keltirilgan.

Rubinshteyn S.L. fikricha:
Shaxs faol, harakatchan ong egasi. Shaxs faoliyatda namoyon bo`ladi va shakllanadi.

Leontev A.N. ta`rificha
Shaxs faoliyat sub'ekti va faoliyat mahsuli.

Platonov K.K. tarificha:
Shaxs o‘z rolini anglovchi jamiyat a`zosi

Kovalev A.G. ta'rificha:
Shaxs ijtimoiy munosabatlar sub'ekti va ob'ektidir.

Shaxsning shakllanishi asosan uch sohada amalga oshiriladi:



Nutqiy nuqsoni bo‘lgan shaxsning kommunikativ xususiyatlari:

- bu – boshqa insonlar bilan aloqa o‘rnatish ehtiyoji kamligi;
- bu –insonlar bilan o‘zaro munosabatlar o‘rnata olishidagi qiyinchiliklar;
- bu – muloqot jarayonida o‘zaro ta`sir o‘rnatish va o‘zaro bir`birini tushuna olishdagi qiyinchiliklar.

Ko‘pgina olimlar nutqiy nuqsoni bo‘lgan bolalarni shaxsining kommunikativ xususiyatlari boshqa sifatlar bilan bog‘langanligini o‘rgandilar . Bular:

Seliverstov V.I.	Zaitseva L.A.	Orlova O.S.	Volkova G.A.

Nutqiy nuqsonga ega bolalarning ekstravertlik xususiyatlari:

- insonning tashqi obyektlar dunyosiga, tashqi olamga yo‘nalganligi;
- nutqiy nuqsonga ega bolalar o‘z nutqiy nuqsonini anglashdan umidsizlikka tushmaydilar. Ayrimlari hatto uning kamchiliklarini umuman sezmaydilar;
- ular tengdoshlar va kattalar, tanishlar va notanishlar bilan bajonidil aloqada bo‘lishadi;
- ularda xijolat yoki tortinish elementlari yo‘q.

Nutqiy nuqsonga ega bolalarning introvertlik xususiyatlari:

- insonning o‘z subyektiv dunyosiga, ichki olamiga yo‘nalganligi;
- bolalar nuqson tufayli yoqimsiz tajribalarni boshdan kechiradilar, uni yashiradilar, hiylalar yordamida og‘zaki muloqot usulidan foydalanib, imo-ishora mimikalardan foydalanadilar;
- bolalar o‘z kamchiliklarini bilishi, har bir qadam, har bir harakat o‘z nuqsoni darajasi orqali baholanganda, o‘zlarini erkin, sokin tutsada, ishki qiyinchiliklar iztiroblar o‘z qadr-qimmatini pastligi, og‘riqli his qilishiga olib keladi.

Rinolaliyada shaxs va shaxslararo munosabat xususiyatlari

Artikulyatsion nutq apparatidagi anatomik buzulishlar, labdagi va qattiq tanglaydagi yoriqliklar, burun bo‘shlig‘idagi o‘simtalar nutqning noaniq va tushunarsiz bo‘lishiga va bolaning nutqidagi kuchli manqalanish uning atrofdagilar, ayniqsa begonalar oldida nutqdan foydalanishning cheklanishiga olib keladi. Atrofdagilarning bola nutqini tushunishidagi qiyinchiliklari muloqot jarayonini yanada og‘irlashtiradi. Bola o‘z nutqi va tashqi ko‘rinishidagi kamchiliklardan uyaladi. O‘zgalarning tanqidiy munosabati va nuqsoniga doir ortiqcha savollardan qo‘rqadi va qochadi. Bu esa uni jamiyatdan uzoqlashtiradi.

Dizartriyada shaxs va shaxslararo munosabat xususiyatlari

Dizartriyada bolalarda harakat-tayanch apparatidagi falajlanish bilan birga nutqiy harakatga javob beruvchi Broka markazi ham jarohatlangan bo‘ladi. Bu esa nutq apparati innervatsiyasining buzilishiga olib kelib, artikulyatsion nutq apparati a’zolarining harakatini cheklab qo‘yadi. Bola tovushlarni aniq talaffuz eta olmaydi, so‘zlar to‘liq ifoda etilmaydi. So‘zlovchining nutqi o‘zaro muloqot jarayonini murakkablashtiradi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

- Ayupova M.Yu. Logopediya T.,2007.
- Денисова О.А.Детская психология. М.,2008.
- Калягин Б.А. Логопсихология. М.,2005.
- Mo‘minova L.R. , Abidova N.Z. Maxsus psixologiya. T.,2013.
- Трошин О.В., Жулина Е.В. Логопсихология. М.,2005.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Shaxs nima va shaxs xususiyatlariga nimalar kiradi?
2. Nutq nuqsoniga ega bolalar shaxs xususiyatlariga nimalar kiradi?
3. Nutq nuqsoniga ega bolalarning shaxslararo munosabati kimlarga bog‘liq?
4. Ijtimoiy muhitning munosabati nutqiy nuqsonga ega bolalarga nimalarni beradi?
5. Nutqiy nuqsonga ega bolalar ta’lim-tarbiya jarayonidagi jamoa munosabatida yuzaga keladigan muammolar nimalardan iborat?